

15-Dekabr, 2025-yil

**TA’LIM JARAYONIDA SHAXSIY ONG VA O’ZINI BAHOLASH
QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK YECHIMI**

Matkarimova Zebiniso Po’latbek qizi

Osiyo Xalqaro universiteti

pedagogika mutaxassisligi bo’yicha I-bosqich magistranti

Annatotsiya: *Ushbu maqolada ta’lim jarayonida shaxsiy ong va o’zini baholash qobiliyatlarini shakllantirish, baholash olish va rivojlantirish jarayonlarining nazariy-metodik asoslari yoritiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, psixologik diagnostika usullari, kuzatish, suhbat, tajriba va testga asoslangan baholash tizimlarining ta’lim jarayonidagi o’rni tahlil qilinadi. Shaxsning ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, o’zini baholay olish, ijtimoiy va texnik qobiliyatlarini rivojlantirishda ta’lim muhiti yaratadigan imkoniyatlar yoritilib, samarali pedagogik shart-sharoitlar asoslab beriladi.*

Tayanch so‘zlar: *shaxsiy ong, o’zini baholash, refleksiya, pedagogik texnologiyalar, portfolioga asoslangan baholash, o’quvchi faolligi, shaxs rivoji, psixologik diagnostika, kompetensiya.*

Abstract: *This article covers the theoretical and methodological foundations of the processes of forming, assessing and developing personal consciousness and self-assessment skills in the educational process. The role of modern pedagogical approaches, psychological diagnostic methods, observation, interview, experience and test-based assessment systems in the educational process is analyzed. The opportunities created by the educational environment for the development of a person's creativity, logical thinking, self-assessment, social and technical abilities are highlighted, and effective pedagogical conditions are justified.*

Keywords: *personal awareness, self-assessment, reflection, pedagogical technologies, portfolio-based assessment, student activity, personal development, psychological diagnostics, competence.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы процессов формирования, оценки и развития личностного сознания и навыков самооценки в образовательном процессе. Анализируется роль современных педагогических подходов, методов психологической диагностики, наблюдения, интервьюирования, опыта и систем оценки на основе тестирования в образовательном процессе. Подчеркиваются возможности, создаваемые образовательной средой для развития творческих способностей, логического мышления, самооценки, социально-технических навыков личности, и обосновываются эффективные педагогические условия.*

Ключевые слова: *самосознание, самооценка, рефлексия, педагогические технологии, портфолио-оценка, студенческая деятельность, личностное развитие, психологическая диагностика, компетентность.*

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki shaxsiy ong, o‘zini anglash hamda o‘zini baholash kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biridir. Chunki o‘zini tanigan, o‘z qobiliyati, imkoniyati, kuchli va zaif tomonlarini bilgan shaxs mustaqil fikrlashga, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga, ongli ravishda qaror qabul qilishga qodir bo‘ladi.

Mamlakatimizda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini alohida tashkil etiladi. Barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to‘laqonli ochib berilgandir. Shu sababli shaxsiy qobiliyatlarni aniqlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, o‘quvchi shaxsiy ongini baholay olishning zamonaviy metodlarini qo‘llash, pedagogning diagnostik kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kun ta’limi oldidagi muhim vazifadir.

Shaxsiy ong – bu insonning o‘zini mustaqil shaxs sifatida anglash, o‘z xulq-atvori, fikrlari, maqsadlari va his-tuyg‘ulari ustidan nazoratni amalga oshirishi jarayonidir. Ta’lim jarayonida shaxsiy ongning shakllanishi o‘quvchilarning o‘zini tanishi, o‘z qadr-qimmatini his qilishi, ichki motivatsiyasini mustahkamlashi, o‘z hayoti uchun mas’uliyat sezishi kabi jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ta’limda o‘quvchining faolligi, refleksiya, va o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish pedagogik texnologiyalarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘rganilgan. Bu borada L.S. Vygotskiy, J. Piaget, B. Bloom, D. Kolb kabi olimlar tajribaga asoslangan o‘qitish modeli, o‘zini tahlil qilishni o‘rgandi.

O‘zbek pedagog olimlaridan A. Qurbonov, N. Sayidahmedov, B. Ziyomammedov – interfaol ta’lim, refleksiya va o‘zini baholashning metodik asoslari o‘rganishgan. M. Yo‘ldosheva, Sh. Sharipov – shaxs psixologiyasi, o‘zini anglashning yoshga oid xususiyatlari o‘rgangan. R. Ishmuhamedov, O. Tolipov – ta’lim texnologiyalari, o‘quvchi faoliyatini baholashning zamonaviy yondashuvlari o‘rganishgan. Bu tadqiqotlar pedagogik jarayonda o‘quvchi shaxsini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini kengaytirgan.

Shaxsiy ongning ilmiy-falsafiy mazmuni, falsafada ong tushunchasi insonning borliqni ongli aks ettirish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Shaxsiy ong esa umumiy ongning ichki, individuallashtirilgan ko‘rinishi bo‘lib, quyidagi tarkibiy jihatlarga ega:

1. O‘z-o‘zini bilish — insonning o‘z xususiyatlari, fazilatlarini, imkoniyatlari, kamchiliklari haqida tasavvurga ega bo‘lishi.
2. O‘z-o‘zini baholash — shaxsning o‘z faoliyati va xulqiga tanqidiy munosabat bildira olishi.
3. O‘z-o‘zini boshqarish — qaror qabul qilish, niyatlar, motivlar va xatti-harakatlarni nazorat qilish qobiliyati.

15-Dekabr, 2025-yil

4. O‘z “Men”i konsepsiyasi — “men kimman?”, “hayotimdagi maqsadlarim nimalar?” kabi savollarga javob bera olish.

O‘zini baholash qobiliyatining ahamiyati – bu shaxsning o‘z xatti-harakati va natijalarini ma’lum mezonlar asosida tahlil qila olishi, o‘z imkoniyatlariga adolatli qarashi demakdir. To‘g‘ri shakllangan o‘zini baholash o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, o‘zini rivojlantirishga undaydi, mustaqil ta’lim olishga yordam beradi muvaffaqiyatga erishish strategiyasini shakllantiradi. Aksincha, past yoki haddan tashqari yuqori o‘zini baholash motivatsiya va ijtimoiy muloqot jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Qobiliyat — bu shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratuvchi individual psixologik xususiyatlar majmuasidir. Psixologiya fanida B.M.Teplov, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev kabi olimlarimiz qobiliyatning tug‘ma va orttirilgan jihatlardan kelib chiqib izoh bergan.

O‘zbek pedagog olimlaridan — M.G‘.Davletshin, O.Tolipov, R.Niyozov, N.Azizxo‘jayevlar qobiliyatlarni rivojlantirishda ta’lim jarayoni muhim ahamiyat kasab etishi haqida takidlab otishgan. Ularning fikriga ko‘ra, qobiliyatlar to‘g‘ri yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida shakllanishi, mustahkamlanishi va rivojlanishi mumkin.

Shaxsiy ongning rivojlantirishga ta’sir etuvchi pedagogik omillar quyidagilardan iborat:

1. O‘qituvchi shaxsiyati. O‘qituvchining xulqi, muloqoti, qo‘llab-quvvatlashi o‘quvchi shaxsiy ongning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

2. Oila muhiti. Mehr-muhabbat, ishonch, rag‘bat shaxsiy ongning sog‘lom rivojiga xizmat qiladi.

3. Ta’lim metodlari, reflektiv yondashuv, interfaol usullar loyiha va muammoli ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. Bu metodlar o‘quvchining faol sub’ekt sifatida o‘zini anglashiga yordam beradi.

4. Muloqot madaniyati va kommunikativ muhit.

5. Baholash tizimi. Adolatli baholash o‘quvchida ijobiy o‘z-o‘zini baholashni shakllantiradi.

Bugungi kunda psixologiya fanida o‘zini baholashning mazmuni, strukturasi, rivojlanish qonuniyatlari, shakllanish mexanizmlari va yoshga doir xususiyatlari chuqur o‘rganilmoqda. Chunki insonning ijtimoiy moslashuvi, o‘qish va mehnatdagi samaradorligi, liderlik qobiliyati, kommunikativ madaniyati va ruhiy barqarorligi bevosita o‘zini baholashning barqarorligiga bog‘liq.

Ta’lim jarayonida shaxsiy ong va o‘zini baholashni shakllantirish usullari

1. Refleksiya jarayonlarini tashkil etish

O‘quvchilarni har bir darsdan so‘ng o‘z faoliyatini tahlil qilishga undash shaxsiy ongning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bunga quyidagilar kiradi: “Bugun nimani o‘rgandim?”. “Qaysi joyda qiynalдим va nega?”, “Kelasi safar qanday yaxshiroq natijaga erishaman?” kabi savollar yordamida o‘zini anglash kuchayadi.

2. O‘zaro baholash va o‘zini baholash topshiriqlari

15-Dekabr, 2025-yil

Ta’lim jarayonida reyting jadvallari, o‘zini baholash varaqalari, reflektiv kundaliklar qo‘llanilishi o‘quvchilarda adolatli va asosli baholash ko‘nikmasini shakllantiradi.

3. Motivatsion suhbat va psixologik ko‘mak

O‘qituvchi o‘quvchi bilan individual suhbatlar o‘tkazib, uning kuchli tomonlarini ko‘rsatib berishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishi lozim. Bu jarayon ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

4. Ijodiy va erkin faoliyat uchun sharoit yaratish

O‘quvchiga tanlov imkonini berish, ijodiy topshiriqlar, loyihaviy ishlar orqali u o‘z qobiliyatlarini sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada shaxsiy ong va mas’uliyat darajasi ortadi.

5. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash

Elektron portfoliolar, interaktiv testlar, onlayn refleksiya platformalari o‘quvchilarning o‘z yutuqlari va kamchiliklarini aniq kuzatib borishiga yordam beradi.

XULOSA

Ta’lim jarayonida shaxsiy ong va o‘zini baholash qobiliyatini shakllantirish o‘quvchilarni mustaqil fikrlovchi, mas’uliyatli va ongli shaxs sifatida tarbiyalashning asosiy shartlaridan biridir. O‘qituvchining to‘g‘ri yondashuvi, metod va vositalarni oqilona tanlashi bu jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bunday kompetensiyaga ega bo‘lgan o‘quvchi kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topa oluvchi yetuk mutaxassisga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. — Toshkent, 2021.
2. Karimov, S. Sh. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: Fan, 2020
3. Qodirov Q., Begimqulov U. “Oliy ta’limda innovatsion yondashuvlar” — Toshkent: Fan, 2016. — 145–178-betlar.
4. Nishonova, Z. Pedagogik innovatsiyalar: nazariya va amaliyot. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
5. Mavlonova, R. va boshq. Pedagogika: darslik. — Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
6. Jalilova, N. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. — “Pedagogika va psixologiya” jurnali, 2023, №2.